

## SIZOT SUVLARI HAMDA MELIORATSIYA YO`NALISHLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING QISHLOQ XO`JALIGIDAGI AHAMIYATI

*Tlegenova Gulnaz Marat qizi*  
*Ilmiy izlanuvchi*

**Annotatsiya.** Yer sayyorasi insoniyatning umumiy yashash joyi yagona uyi hisoblanadi, unda ekologik halokatni bartaraf qilish mavjud 200dan ortiq davlatlar, qariyb 7 mlrd.ga yaqin insonlarning umumiy vazifasidir. Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish xaqaro kelishuv asosida umumjahon miqyosida amalga oshirilgandagina o‘z samarasini berishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** sizot suv, qishloq xo‘jaligi, melioratsiya, tabiat, resurs.

**Abstract.** Planet Earth is the only common habitat of mankind, and elimination of environmental destruction is the common task of more than 200 countries and about 7 billion people. Nature protection and rational use of natural resources can be effective only if it is implemented on a global scale based on mutual agreement.

**Key words:** groundwater, agriculture, reclamation, nature, resource.

**Абстракт.** Планета Земля – единственная общая среда обитания человечества, а устранение разрушения окружающей среды – общая задача более 200 стран и около 7 миллиардов человек. Охрана природы и рациональное использование природных ресурсов могут быть эффективными только в том случае, если они осуществляются в глобальном масштабе на основе взаимного согласия.

**Ключевые слова:** подземные воды, сельское хозяйство, мелиорация, природа, ресурс.

**Kirish.** Yer - xalq boyligi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning bosh vositasi. Tuproqning unumdorligi va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish ko‘p jihatdan unga extiyotkorlik, tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishga, uni yaxshilashga qaratilgan majmuaga bog‘liq.

**Adabiyotlar sharxi.** Respublikamiz hududida turli iqlim sharoitlari va ko‘plab tuproq tiplari tarqalgan bo‘lib, bunday sharoitda yuqorida ko‘rsatilgan muammolarni hal etish yanada murakkablashadi. Qishloq xo‘jaligi yerlari zaminimiz ekologik tizimining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, u tabiatning boshqa qismlari suv, o‘rmon, hayvonot va o‘simlik dunyosi, foydali qazilmalar va boshqa yer osti boyliklari bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq<sup>1</sup>. Yer va tuproqsiz boshqa tabiiy resurslardan foydalanib bo‘lmaydi. Shuning uchun yerga xo‘jasizlarcha munosabatda bo‘lish natijasida hozirda va yaqin kelajakda butun atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishi mumkin. Bu faqatgina yer ustki qatlamining buzilishiga olib kelmasdan – tuproqlar, ularning eroziyasi, sho‘rlanishi, botqoqlanishi, kimyoviy va radioaktiv ifloslanishi hamda tabiat kompleksining ekologik yomonlashuviga olib keladi. Aynan shuning uchun ham yerlarni muhofaza qilish

<sup>1</sup> Maxsudov X.M., Odilov A.A., Eroziyashunoslik.Toshkent.2018yil.

jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun sharoit yaratish va inson hayoti va faoliyatini ta'minlashda ko'rinadi. Shunga ko'ra qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yoki qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmaganligidan qat'iy nazar barcha yerlar muhofaza qilinishi lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** Qishloq xo'jaligining sug'oriladigan, sizot suvlari yuqori yerlarida sho'rlanish va tuz yig'ilib qolishi xavfi mavjud bo'lsada, tuproq tarkibida yig'ilib qolgan zararli kimyoviy moddalar ta'sirida qishloq xo'jaligi yerlari o'z hosildorligini yo'qotishda davom etmoqda, zero, sho'rlanishga qarshi kurash choralari yetarlicha emasligini ko'rsatmoqda. Haddan ziyod sho'rlangan yerlar hamisha sho'rlanmagan yerlarga nisbatan kam hosil beradi. Bunday yerlar davlat hamda yerdan foydalanuvchilardan ko'proq mehnat va mablag' sarf etilishini taqozo etadi. Shu bois, yer unumdorligini saqlash va doimiy oshirib borish, undan oqilona va samarali foydalanish davlatning yer sohasidagi siyosatining ajralmas qismi, mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti dasturlarining muhim bo'limi sifatida baholanishi lozim. Tuproqlar sho'rlanish darajasiga ko'ra besh guruhga ajratiladi<sup>2</sup>: 1) sho'rlanmagan; 2) oz sho'rlangan; 3) o'rtacha sho'rlangan; 4) kuchli sho'rlangan; 5) sho'rxokka bo'linadi. Tuproqlarni sho'rlanish darajasiga ko'ra guruhga ajratishda ular tarkibidagi suvda oson eriydigan tuzlarning umumiy miqdoriga va xlor miqdoriga e'tibor beriladi. Sho'rlanishning ortishi bilan tuproqning sifati yomonlashadi, unumdorligi pasayadi va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish zarurati tug'iladi. Sho'rlangan tuproqlardan qishloq xo'jaligida foydalanishda ekin ekishdan oldin bunday tuproqli yerlarda quyidagi melioratsiya tadbirlarini to'la amalga oshirish lozim: - agronomiya talablariga to'la javob beradigan qoidalar asosida suvdan foydalanish rejalarini puxta ishlab chiqish, yangi sug'orish sistemasiga o'tish, sug'orish shaxobchalaridan gidrotexnika inshootlarini qurish, suvni tejash, uni iflos qilmaslik singari ishlar tuproq sho'rlanishini oldini olishdagi eng muhim choralardan biri hisoblanadi; - sizot sho'r suvlarning kapillyar yo'llar orqali uzluksiz ravishda pastdan yuqoriga ko'tarilishini to'xtatish va tuproqda yig'ilgan zararli tuzlarni yo'qotish yo'li bilan sho'rxoklar va turli darajada sho'rlangan tuproqlar sho'rini ketkazish va ularni yaxshilash mumkin; - tuproqlarning fizikaviy va ximiyaviy xususiyatlarini yaxshilash uchun bu tuproqlarga, albatta, gips solish kerak<sup>3</sup>. Uning xususiyati shundaki, tuproqning singdiruvchi kompleksidagi natriy va kalsiyni siqib chiqaradi, shuningdek, tuproqning fizikaviy holatini yaxshilaydi; - sho'rtob va sho'rtobli tuproqlarga o'g'it solish, sho'rtobli qatlamni ag'darib chuqur haydash, sug'orish ishlarini keng ko'lamda joriy qilish, zovurlar qazib ularning sathini pasaytirish kabi tadbirlar tuproqning fizikaviy va ximiyaviy xususiyatlarini yaxshilaydi, unumdorligini oshirishdagi asosiy tadbirlardan hisoblanadi. Agar agromeliorativ tadbirlar o'z vaqtida va to'g'ri qo'llanilsa, bu tuproqlarda ekin ekib, ulardan muttasil yuqori hosil olish mumkin; - sho'rlangan tuproqlarni yuvish eng asosiy meliorativ tadbir hisoblanib, bunda gorizont va vertikal zovurlarning

<sup>2</sup> O'zbekiston tuproqlari. U.Tojiev, X.Namozov, Sh.Nafetdinov. 2018

<sup>3</sup> Ramzanov O., Yusupbekov O. Tuproqshunoslik va dehqonchilik «Sharq» nashriyoti Toshkent-2003

yaxshi ishlashini ta'minlab, keyin yuvish kerak. Tuproq sho'rini yuvishda sho'r yuviladigan suvning me'yori tuproqning sho'rlikiga, sizot suvlarining chuqurligi va sho'rlikiga e'tibor qilinmasa, sho'rlanish yanada ortadi. To'g'ri almashlab ekish sho'rlandigan va botqoqlashadigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilaydi, tuproq unumdorligini oshiradi hosildorlikni ko'paytiradi. Almashlab ekishning meliorativ ta'siri- tuproq hosildor bo'ladi, unda organik va ozuqa moddalar ko'payadi, fizik xossasi yaxshilanadi, namlik esa kamroq bug'lanadi. Bugungi kunda sayyoramiz aholisiga nisbatan haydaladigan yer 10-20 yil avvalgidan kamroq to'g'ri kelishini nazarda tutsak, tuproq unumdorligini oshirish, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini ikki karra, uch karra ko'paytirish yaqin kelajakda dehqonchilikning asosiy vazifasi bo'lib qolishi lozimligi yaqqol namoyon bo'ladi. Afsuski, bugungi kunda tuproq qatlami yemirilmoqda, yaxshi unumdor yerlar kamayib bormoqda, tobora jadallik bilan tanazzulga yuz tutmoqda. Yer resurslaridan har tomonlama oqilona foydalanmay, tuproq qatlamini turli yemirilish-eroziyalanish va boshqa salbiy ta'sirlardan muhofaza qilish choralarini kuchaytirmay, qishloq xo'jaligi bilan aloqador bo'lgan, maqsadli yerlarni tejab-tergab ishlatish yo'llarini qilmay turib, yuqorida sanab o'tilgan muammolarni hal etishning imkoni mavjud emas. Tuproqning unumdorligini oshirish ko'p jihatdan unga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishga, uni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar majmuasiga bog'liq.

**Xulosa va munozara.** Shularni e'tiborga olgan holda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini izchillik bilan jadallashtirish, yer fondidan oqilona foydalanish, sug'oriladigan har gektarining unumdorligini, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolaryechimini ishlab chiqish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada tuproq unumdorligini saqlash, yil sayin muntazam oshirib borish qishloq xo'jalik mutaxassislari zimmasidagi muhim vazifa hisoblanadi. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tuproq unumdorligini tiklash va meliorativ tizimlar qurish, ulardan foydalanishga bog'liq tabirlar o'tkazishga davlat tomonidan katta mablag'lar ajratilayotganligi bejiz emas.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Maxsudov X.M., Odilov A.A., Eroziyashunoslik. Toshkent. 2018yil.
2. O'zbekiston tuproqlari. U.Tojiev, X.Namozov, Sh.Nafetdinov. 2018
3. Abdullaev S.A., Nomozov X.Q. Tuproq melioratsiyasi «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilimiy nashriyoti, Toshkent-2011
4. Ramzanov O., Yusupbekov O. Tuproqshunoslik va dehqonchilik «Sharq» nashriyoti Toshkent- 2003
5. www.ziyonet.uz
6. Salimov B.L. Expression of Dialectic Categories in the Individual's Social Life // openaccessjournals. eu. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. Volume: 1, Issue 4, 2021. -P.16-18.
7. Салимов Б.Л. Философская роль диалектических категорий в жизни человека // Историческая психология и социология истории (historical

- psychology & sociology). – M., 2020. Т. 13. -№1. -С. 111-119.
8. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.
  9. Tajibayev, S. (2020). Improvement Of Technical And Tactical Movements Of Wrestlers On The Basis Of Differential Approach, Taking Into Account The Morphological Characteristics. *Scienceweb academic papers collection*.
  10. Khojaniyozov, B. I. (2021). Teaching wrestling as anational sport in higher educational universities. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(7), 259-266.
  11. Холиқов, Б. Х. (2020). МАЛАКАЛИ КУРАШЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ТЕХНИК УСУЛЛАРНИ БАЖАРИШ СИФАТИНИНГ ЎРНИ. *Fan-Sportga*, (5), 41-43.
  12. Mizamovich, P. R. (2022). Enhancing the Technical Preparation in Kurash. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 12, 54-55.
  13. Mizamovich, P. R. (2022). Development of Physical Qualities of Kurash Wrestling Girls. *Eurasian Research Bulletin*, 12, 55-57.
  14. Artikov, Z. S., & Khakimov, D. U. (2022). MECHANISMS FOR IMPROVING ATTRACTION INVESTMENT OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF THE SAMARKAND REGION. *Results of National Scientific Research*, 1(6), 368-378.
  15. Khidirovich, K. B. (2022, April). DEVELOPING TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING OF SKILLED WRESTLERS. In *E Conference Zone* (pp. 193-195).
  16. Холиқов, Б. Х. (2022). МАЛАКАЛИ КУРАШЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ВА ТЕХНИК-ТАКТИК ТАЙЁРГАРЛИК ВОСИТАЛАРИ НИСБАТИНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШ. *Fan-Sportga*, (1), 28-31.
  17. Artikov, Z. S. (2022). BELBOG ‘LI KURASHCHILARDA MUVOFIQLIK VA SPORT MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific progress*, 3(1), 594-597.
  18. Romanova, S., Maryanova, S., & Naumov, A. (2021, November). Analysis of the Key Financial Factors Affecting the Profitability of Enterprises in the Context of the Digitalization of the Economy. In *Second Conference on Sustainable Development: Industrial Future of Territories (IFT 2021)* (pp. 260-265). Atlantis Press.
  19. Artikov, Z. S. (2022). 13-14 YOSHLI BELBOG‘LI KURASHCHILARNING KUCH SIFATLARINI TARBIYALASH. *Scientific progress*, 3(1), 598-603.
  20. Холиқов, Б. Х. (2021). КУРАШЧИЛАРНИНГ ТЕХНИК ТАЙЁРГАРЛИГИДА ЯНГИ ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ УСЛУБИЯТИ. *Fan-Sportga*, (3), 23-24.
  21. Sobirjonovich, T. N. (2021, January). THE INFLUENCE OF THE ANGLE OF ENTRANCE OF THE BLADE OF THE DEVICE FOR SEMI-OPENING OF POMEGRANATE BUSTS ON ITS PERFORMANCE INDICATORS. In

- Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 390-393).
22. kuziev Abdusalim, T., Boqijonovich, I. Q., Shermatjonovich, G. B., Khamitovich, M. K., Sattikhojaevich, B. Z., & Sobirjonovich, T. N. (2020). Definition Optimal Values Of Device Parameters That Semi-Open Pomegranate Trees. *Solid State Technology*, 63(6), 9778-9787.
  23. Sobirjonovich, T. N. Determining the Optimal Values of the Device Parameters for Semi-Opening Pomegranate Tubers.
  24. Turayev, N. (2018). Анор кўчатларини кўмишни механизациялаш муаммолари. *Scienceweb academic papers collection*.
  25. Turayev, N. (2020). КЎМИЛГАН АНОР ТУПЛАРИНИ ЯРИМ ОЧАДИГАН ҚУРИЛМАНИНГ КОРПУСЛАРИ ОРАСИДАГИ КЎНДАЛАНГ МАСОФАНИ УНИНГ ИШ КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
  26. Turayev, N. (2020). ҚУРИЛМАНИНГ ЛЕМЕХЛАРИ ОРАСИДАГИ КЎНДАЛАНГ МАСОФАНИ УНИНГ ИШ КЎРСАТКИЧИГА ТАЪСИРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
  27. Turayev, N. (2020). Анор тупларини бир ўтишда тўла очадиган машина. *Scienceweb academic papers collection*.
  28. Turayev, N. (2022). Determining the Optimal Values of the Device Parameters for Semi-Open pomegranate Tubers. *Scienceweb academic papers collection*.
  29. Turayev, N. (2021). АНОР ТУПЛАРИНИ ЖУФТ ЛЕМЕХЛАРИН УЗУНЛИГИНИ АНИКЛАШ. *Scienceweb academic papers collection*.
  30. Yuldasheva, N., Acikyildiz, N., Akyuz, M., Yabo-Dambagi, L., Aydin, T., Cakir, A., & Kazaz, C. (2022). The Synthesis of Schiff bases and new secondary amine derivatives of p-vanillin and evaluation of their neuroprotective, antidiabetic, antidepressant and antioxidant potentials. *Journal of Molecular Structure*, 1270, 133883.
  31. Юлдашева, Н. (2022). АДАБИЙ ТАЪЛИМДА ИНТЕГРАТИВ МУҲИТНИ ҲОСИЛ ҚИЛИШ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 149-157.
  32. Kholikulov, A. N., & Yuldasheva, N. (2021). OPPORTUNITIES TO INCREASE THE COMPETITIVENESS OF TOURIST ENTERPRISES IN OUR COUNTRY. *EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI)*, 9(4), 1-1.
  33. Yuldasheva, N. (2021). DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND AESTHETIC COMPETENCE IN FINE ARTS TEACHERS. *ГРААЛЪ НАУКИ*, (2-3), 418-423.
  34. Yuldasheva, N. A. (2021). Forming young people's sense of patriotism-Didactic principle in literature classes. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 926-930.
  35. Madimarovna, A. I. (2020). The Role of Art in Youth's Aesthetic Education. *Cross-Cultural Communication*, 16(1), 121-123.

36. Шукуров, М. Н. (2021). Курашчиларнинг организмига кластерланган махсус тайерлов техник машқларининг таъсири. Наманган Давлат Илмий Ахборотномаси, 366-369.
37. Latyshev, M., & Holovach, I. (2021). Improvement of the Technical and Tactical Preparation of Wrestlers with the Consideration of an Individual Combat Style. *SportMont*, (19), 23-28.
38. Tajibayev, S. (2020). Improvement Of Technical And Tactical Movements Of Wrestlers On The Basis Of Differential Approach, Taking Into Account The Morphological Characteristics. *Scienceweb academic papers collection*.
39. Khojaniyozov, B. I. (2021). Teaching wrestling as a national sport in higher educational universities. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(7), 259-266.
40. Холиқов, Б. Х. (2020). МАЛАКАЛИ КУРАШЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ТЕХНИК УСУЛЛАРНИ БАЖАРИШ СИФАТИНИНГ ЎРНИ. *Fan-Sportga*, (5), 41-43.
41. Mizamovich, P. R. (2022). Enhancing the Technical Preparation in Kurash. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 12, 54-55.
42. Mizamovich, P. R. (2022). Development of Physical Qualities of Kurash Wrestling Girls. *Eurasian Research Bulletin*, 12, 55-57.
43. Artikov, Z. S., & Khakimov, D. U. (2022). MECHANISMS FOR IMPROVING ATTRACTION INVESTMENT OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF THE SAMARKAND REGION. *Results of National Scientific Research*, 1(6), 368-378.
44. Khidirovich, K. B. (2022, April). DEVELOPING TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING OF SKILLED WRESTLERS. In *E Conference Zone* (pp. 193-195).
45. Холиқов, Б. Х. (2022). МАЛАКАЛИ КУРАШЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ВА ТЕХНИК-ТАКТИК ТАЙЁРГАРЛИК ВОСИТАЛАРИ НИСБАТИНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШ. *Fan-Sportga*, (1), 28-31.
46. Artikov, Z. S. (2022). BELBOG ‘LI KURASHCHILARDA MUVOFIQLIK VA SPORT MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific progress*, 3(1), 594-597.
47. Romanova, S., Maryanova, S., & Naumov, A. (2021, November). Analysis of the Key Financial Factors Affecting the Profitability of Enterprises in the Context of the Digitalization of the Economy. In *Second Conference on Sustainable Development: Industrial Future of Territories (IFT 2021)* (pp. 260-265). Atlantis Press.
48. Artikov, Z. S. (2022). 13-14 YOSHLI BELBOG‘LI KURASHCHILARNING KUCH SIFATLARINI TARBIYALASH. *Scientific progress*, 3(1), 598-603.
49. Холиқов, Б. Х. (2021). КУРАШЧИЛАРНИНГ ТЕХНИК ТАЙЁРГАРЛИГИДА ЯНГИ ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН Фойдаланиш услубияти. *Fan-Sportga*, (3), 23-24.